

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025 dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 541 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Голышева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH.....	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
<i>Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li</i>	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
<i>Karimova Iroda Abdusattarovna</i>	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
<i>Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva</i>	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
<i>Inomiddin Imomov</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
<i>Алиева Эльнара Аметовна</i>	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	331
<i>Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна</i>	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
<i>Bustonov Mansurjon Mardonakulovich</i>	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
<i>Xaydarov Sardor Komil o'g'li</i>	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
<i>Joniqulov Egamberdi Shavkat o'g'li</i>	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
<i>Ruzmetova Gulira'no Atabekovna</i>	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
<i>Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич</i>	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
<i>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</i>	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
<i>Хусанов Дурбек Нишанович</i>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
<i>Xidirov Erkin Irgashovich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
<i>Amanbaev Amanali Ortazbaevich</i>	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
<i>Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi</i>	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	403
<i>Akmal Shodiyev</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOBİ	408
<i>Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li</i>	



O'TKIR BRONXOLIT BILAN KASALLANGAN BOLALARDA KATAMNEZNING EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA UZIGA XOS KECHISHI.....	412
Azimova Kamola Talatovna	
THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING CONCEPTS RELATED TO YOUTH TOURISM	416
Norboyev Allayor Ismoilovich, Mansurova Zebuniso Abdurashidovna	
THE ESSENTIAL STRATEGIES WAYS OF SERICULTURE INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	420
Khojimatov Ravshanbek Rasuljonovich	
BLENDED LEARNING PLATFORMASI KANSEPSIYASI, ARXITEKTURASI VA FUNKSIONAL TUZILMASI.....	425
Qobulova Madina Tuxbatillo qizi, Mirzaaxmedov Muxammadbobur Karimberdiyevich	
ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA FAROVONLIGIGA TA'SIRI: IQTISODIY TAHLIL VA EKONOMETRIK BAHOLASH	430
Kuanishbay Berdimuratov	
MARKETING EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY YONDASHUVLAR TAHLILI	434
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
УЧЕТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ОРГАНИЗАЦИИ	443
Бабахонов Бабуржон Шухрат угли	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH MASALALARI.....	449
Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA LOGISTIKA BOSHQARUVINING RAQAMLI MODEL VA UNING SAMARADORLIGI	453
Olimova Bahora Shuxratovna	
СУЩНОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	463
Муминходжаева Дилноза Рамизовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ	468
Дурманов Акмал Шаймарданович	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	477
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI.....	483
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVASION JARAYONLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	489
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
AGROKLAFTERLARDA ICHKI SOTISH JARAYONIDA TRANSFERT BAHOLARNI BELGILASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	495
Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MICE TOURISM AND ITS ADAPTATION TO THE CONDITIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	501
Ilkhomova Gulnoza Zayniddin kizi	
MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH.....	507
Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li	
TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI	512
Umarova Munira Muxitdinovna	



JINDA ARRALI SILINDR TISHLARIDAN TOLANI AJRATISH JARAYONINI HAVO OQIMI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRUVCHI ENERGIYA TEJAMKOR QURILMANI MODELLASHTIRISH.....	516
Mirzakarimov Mirsharofiddin Mirzaabdurahimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TOMONIDAN ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNI XORIJGA EKSPORT QILISH MEXANIZMLARI	524
Matkarimov Anvar Tajimatovich	
MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH	528
Qutbtiddinov Hikmatillo Quدراتillo o'g'li	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	533
Ismailov Bobir Salomovich	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA KAPITAL QO'YILMALAR XUSUSIYATLARI VA ULAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH	540
Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR VA ULAR BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI.....	545
Fayzullayev Murodjon Nematulayevich	



QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR VA ULAR BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI

Fayzullayev Murodjon Nematulayevich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi assistenti, mustaqil-tadqiqotchi
ORCID: 0009-0006-1673-3753

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarning tarkibi, ularning buxgalteriya hisobi obyekt sifatida tan olinishi, baholanishi hamda buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirish xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, asosiy vositalarning "Hisob siyosati" da aks ettirilishi va ularni buxgalteriya hisobi amaliyotida yuritish tartibi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Hisob siyosati, asosiy vositalar, yerni obodonlashtirish, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar, asosiy vositalar eskirishi, buxgalteriya hisobvaraqlari.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the composition of fixed assets in agricultural enterprises, their recognition as accounting objects, valuation, and reflection in accounting accounts. In addition, the paper examines the presentation of fixed assets in the accounting policy and the procedure for maintaining their accounting records in practice.

Key words: accounting policy, fixed assets, land improvement, working and productive animals, perennial plants, depreciation of fixed assets, accounting accounts.

Аннотация. В статье подробно анализируются состав основных средств в сельскохозяйственных предприятиях, особенности их признания в качестве объектов бухгалтерского учета, оценки и отражения на бухгалтерских счетах. Также рассматриваются вопросы отражения основных средств в учетной политике и порядок их ведения в практике бухгалтерского учета.

Ключевые слова: учетная политика, основные средства, благоустройство земель, рабочие и продуктивные животные, многолетние насаждения, износ основных средств, бухгалтерские счета.

KIRISH

Qishloq xo'jaligining jadal rivojlanishi mamlakat makroiqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda, balki iqtisodiy o'sish, eksport salohiyatini oshirish hamda mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda ham hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu jihatdan qishloq xo'jaligi strategik tarmoq sifatida belgilab olinib, sohani tubdan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish hamda eksportga yo'naltirilgan sohaga aylantirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Natijada 2023-yilda 426 030,2 million so'mlik qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirilgan bo'lsa, 2024 yilda ushbu ko'rsatkich 467 000,0 million so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan joriy baholarda 9,6 foiz, taqqoslama baholarda esa 3,1 foiz o'sish ta'minlandi.

Bundan tashqari, keyingi yillarda 250 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, ularning o'rniga oziq-ovqat yetishtirishga mo'ljallangan ekinlar ekildi. Ekologik samaradorlikni oshirish maqsadida 224 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi. Natijada 420 million kub metr suv tejab qolindi va 65 ming gektar qo'shimcha yer maydonlari o'zlashtirildi. Shuningdek, 5 100 gektar issiqxona maydonlarida yetishtirilayotgan mahsulot hajmi 110 ming tonnadan 546 ming tonnagacha oshdi.

Qishloq xo'jaligini yanada jadal rivojlantirishda xo'jalik yuritishning samarali shakllarini joriy etish, mehnatga haq to'lash va mehnatni rag'batlantirishning zamonaviy usullarini qo'llash, mavjud resurslardan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi hamda qishloq xo'jaligi hayvonlarining mahsuldorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mavjud resurslardan, jumladan asosiy vositalardan samarali

foydalanish texnologik jarayonlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish hamda uning sifatini yaxshilashga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'p jihatdan buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'lib, bu asosiy vositalarning holati, saqlanishi va ulardan maqsadga muvofiq foydalanilishi bo'yicha axborotlarning ishonchligini ta'minlaydi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi korxonalarida makroiqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan asosiy vositalarning tarkibi va ulardan foydalanish xususiyatlari mavjud. Ushbu xususiyatlarni asosiy vositalar hisobini yuritishda inobatga olish mavjud muammolarni bartaraf etish, asosiy vositalar bo'yicha buxgalteriya hisobi axborotlarining ishonchligini ta'minlash hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Asosiy vositalar hisobi bo'yicha buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlari mavjud bo'lib, ularda asosiy vositalar hisobini yuritish bo'yicha aniq tavsiyalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati va ularning xo'jalik faoliyatidagi o'rnini doimo iqtisodchi olimlar va mutaxassislar o'rtasida muhokama mavzusi bo'lib kelgan. Bu borada xorijiy hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari asosiy vositalarning turli jihatlarini tadqiq etib, ularga turlicha ta'riflar berganlar. Quyida ayrim ta'riflar keltiriladi.

Sklyarenko V.K. va Prudnikova V.M. fikriga ko'ra, "asosiy vositalar – uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan, butun foydalanish davri mobaynida o'z tabiiy va moddiy shaklini saqlab qoladigan hamda amortizatsiya ajratmalari orqali o'z qiymatini mahsulot tannarxiga bosqichma-bosqich o'tkazadigan ishlab chiqarish vositalari va moddiy boyliklar majmui" hisoblanadi.

Garbuzov V.F. esa "asosiy vositalar – mavjud asosiy fondlarga kiritilgan pul mablag'lari" sifatida ta'riflaydi.

Kurakov L.P. asosiy vositalarni "ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan mehnat vositalari, jumladan binolar, inshootlar, mashina va mexanizmlar, inventarlar hamda transport vositalari" deb izohlaydi.

Ayupova L.A.ning fikricha, "asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida faol ishtirok etib, o'z moddiy shaklini saqlagan holda, o'z qiymatini amortizatsiya orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga o'tkazadi".

Pizengols M.Z. esa asosiy vositalarni "inson tomonidan ehtiyojlarni qondirish maqsadida mehnat obyektlariga ta'sir ko'rsatish uchun foydalaniladigan mehnat vositalari" sifatida talqin qiladi.

Ismanov I.N. ta'rifiga ko'ra, "asosiy vositalar – korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida, shuningdek ma'muriy hamda ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirishda foydalaniladigan moddiy aktivlardir".

A. Shakarov esa asosiy vositalarni "sanoat binolari va inshootlari, kuch va qishloq xo'jaligi mashinalari, ishlab chiqarish uskunalari, transport vositalari hamda boshqa turdagi asosiy vositalar majmui" sifatida ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ular buxgalteriya hisobining milliy standartida berilgan ta'rifdan ayrim jihatlar bilan farq qiladi. Milliy standartga muvofiq, "asosiy vositalar – tashkilot tomonidan uzoq muddat (bir yildan ortiq) davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida, shuningdek ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajarishda foydalaniladigan hamda ijaraga berilishi mumkin bo'lgan moddiy aktivlar" hisoblanadi.

Asosiy vositalarning Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) bo'yicha hisobi aktivlar qiymati va majburiyatlarini aniqlash, ularning foydali xizmat muddati, qadrsizlanish qiymatini belgilash, amortizatsiya (eskirish) hisoblash usullarini tanlash hamda qurilish-pudrat shartnomalari bo'yicha qiymatni aniqlashda biznes uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzoq muddatli moddiy aktivlar tarkibida salmoqli ulushni tashkil etuvchi "Mulk, bino va inshootlar", "Mashina va asbob-uskunalar" kabi aktivlarning tavsifi, ularning dastlabki qiymatini aniqlash, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Iqtisodchi olim S.N. Tashnazarov tomonidan ilk bor "asosiy vositalar" ("fixed assets") atamasi o'rniga "Mulk, zavod va asbob-uskunalar" yoki "Property, Plant and Equipment" (rasmiy qisqartmasi – PP&E) atamasini qo'llash maqsadga muvofiqligi g'arb olimlarining qarashlari asosida izohlangan. BHXS tarkibiga kiruvchi uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda aynan ushbu terminologiyadan foydalanish xalqaro amaliyotga mos kelishi ta'kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda respublikamizda qabul qilingan mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, soha iqtisodchi-olimlarining ilmiy ishlari, shuningdek faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari bo'yicha statistik



ma'lumotlardan foydalanildi. Jumladan, asosiy vositalar va ularning turlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlar hamda ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi.

Maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qo'llaniladigan kuzatish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida mehnat, material va moliya resurslari bilan bir qatorda asosiy vositalardan ham keng foydalaniladi. Asosiy vositalar – tashkilot tomonidan uzoq muddat (bir yildan ortiq) davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida, shuningdek ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajarishda foydalaniladigan hamda ijaraga berilishi mumkin bo'lgan moddiy aktivlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, yerlarni obodonlashtirish, mahsuldor va ishchi hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar, irrigatsiya va melioratsiya ishlari ham asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartiga muvofiq, tashkilot rahbari hisob siyosatida aktivlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish mezonlarini, shuningdek asosiy vositalarning guruhlar bo'yicha tasnifini belgilash huquqiga ega. Ushbu talabdan kelib chiqib, korxonalar o'zlarining "Hisob siyosati"ga asosan asosiy vositalar tarkibiga kiritiladigan aktivlarni mustaqil ravishda belgilab oladilar. Asosiy vositalar muayyan belgilariga ko'ra turkumlanadi, bu esa 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval. Asosiy vositalarni turkumlanadi

Turkumlanish belgisi	Turkumlanish turi
Korxona faoliyatida ishtirok etishi ko'ra	Asosiy faoliyatda qatnashadiganlar
	Asosiy faoliyatda qatnashmaydiganlar
Egalik turi ko'ra	Korxona balansidagi (o'z mulki).
	Tezkor boshqaruv e'ki xo'jalik i'ritish huquqi asosidagi (ijaraga olingan).
Moddiy-ashyoviy tarkibiga ko'ra	Moddiy-natural ko'rinishga ega
	Moddiy-natural ko'rinishga ega bo'lmagan
Amortizatsiya (eskirish) hisoblanishiga ko'ra	Amortizatsiya (eskirish) hisoblanadigan
	Amortizatsiya (eskirish) hisoblanmaydigan
Ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatida ishtirokiga ko'ra	Ishlab chiqarish asosiy vositalari
	Zahiradagi asosiy vositalari
	Konservatsiya qilingan asosiy vositalar.
Xo'jalikga kelib tushishiga ko'ra	Chetdan sotib olingan, pudrat usulida qurilgan asosiy vositalar
	Xo'jalikda ishlab chiqilgan, tayyorlangan, qurilgan, etishtirilgan asosiy vositalar
Foydalanish muddatiga ko'ra	Foydalanish muddatini o'tab bo'lgan asosiy vositalar
	Foydalanish muddatini o'tab bo'lmagan asosiy vositalar

1-jadvalda aks ettirilgan asosiy vositalarning turkumlanishi ularning iqtisodiy mohiyatini yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi. Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritishda ular buxgalteriya hisobi obyekti sifatida quyidagi turlar bo'yicha hisobga olinadi:

- yer;
- yerlarni obodonlashtirish;
- moliyaviy ijara shartnomasi asosida olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish;
- binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar;
- mashina va asbob-uskunalar;
- mebel va ofis jihozlari;
- kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi;
- transport vositalari;
- ishchi va mahsuldor hayvonlar;
- ko'p yillik va hosildor o'simliklar;
- boshqa asosiy vositalar;
- konservatsiya qilingan asosiy vositalar.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobini tashkil etish va yuritishda ularning tan olinishi, baholanishi hamda ularga amortizatsiya (eskirish) hisoblanishi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Jumladan, qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalariga foydalanish uchun berilgan yer maydonlarining kadastr qiymati mavjud bo'lsa-da, ushbu qiymat buxgalteriya hisobining obyekti sifatida e'tirof etilmaydi.

Biriktirilgan yer maydonlarini obodonlashtirish, ya'ni yer tuzilishini o'zgartirish, kelish yo'llarini barpo etish, avtomobil va boshqa transport vositalari uchun to'xtash maydonlari tashkil qilish, devorlar hamda boshqa inshootlar holatini yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar 0100 – "Asosiy vositalar" hisobvarag'i tarkibidagi 0111 – "Yerlarni obodonlashtirish" hisobvarag'ida hisobga olinadi. Ushbu xarajatlar haqiqiy xarajatlar (tannarx) bo'yicha baholanadi hamda belgilangan tartibda eskirish hisoblanib, hisobdan chiqarib boriladi.

Ishchi va mahsuldor hayvonlar hisobini yuritishda ham muayyan xususiyatlar mavjud. Agar ushbu hayvonlar chetdan sotib olingan bo'lsa, ular sotib olish bahosiga yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlar qo'shilgan holda baholanadi. Agar hayvonlar xo'jalikning o'zida yetishtirilgan (parvarishlangan) bo'lsa, haqiqiy xarajatlar (tannarx) asosida baholanadi. Ishchi hayvonlarga belgilangan tartibda eskirish hisoblanadi, mahsuldor hayvonlarga esa eskirish hisoblanmaydi. Ishchi va mahsuldor hayvonlar hisobga olinganda yoki hisobdan chiqarilganda 21-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) talablariga muvofiq tegishli hisobvaraqlar bog'lanishi tuziladi.

Ko'p yillik daraxtlar hisobini yuritishda ularni ekish va parvarishlash bilan bog'liq xarajatlar yil davomida 0890 – "Boshqa kapital qo'yilmalar" hisobvarag'ida hisobga olinadi. Yil oxirida ushbu xarajatlar debet 0180 – "Ko'p yillik daraxtlar" hisobvarag'ining "Yosh daraxtlar" analitik hisobvarag'iga va kredit 0890 – "Boshqa kapital qo'yilmalar" hisobvarag'iga buxgalteriya yozuvi orqali o'tkazilib, asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinadi.

Mazkur yozuv daraxtlar hosil beradigan yoshga yetguniga qadar davom ettiriladi. Odatda ko'p yillik daraxtlar ekilganidan keyin uch yil o'tgach "Hosil beradigan daraxtlar" analitik hisobvarag'iga o'tkaziladi. Ko'p yillik daraxtlar haqiqiy xarajatlar (tannarx) summasi bo'yicha baholanadi.

Yosh daraxtlar hosil beradigan daraxtlar guruhiga o'tkazilganda debet 0180 – "Ko'p yillik daraxtlar" hisobvarag'ining "Hosil beradigan daraxtlar" analitik hisobvarag'i va kredit 0180 – "Ko'p yillik daraxtlar" hisobvarag'ining "Yosh daraxtlar" analitik hisobvarag'i bo'yicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobini tashkil etish va yuritishdagi ushbu xususiyatlar hisobga olingan holda korxonaning "Hisob siyosati"da o'z aksini topadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar tarkibiga yerlarni obodonlashtirish, ishchi va mahsuldor hayvonlar podasini to'ldirish, ko'p yillik o'simliklar (daraxtlar)ni ekish va parvarishlash, shuningdek irrigatsiya va melioratsiya ishlari natijasida vujudga keladigan buxgalteriya hisobi obyektlari kiritiladi va ularning hisobi asosiy vositalar tarkibida yuritiladi. Ushbu obyektlarning aksariyati inventar obyektlar ko'rinishiga ega bo'lsa, ayrimlari inventar obyekti sifatida ajratilmaydi hamda xarajatlar summasi asosida baholanib, qiymati bo'yicha hisobga olinadi.

Mazkur xususiyatlarni inobatga olgan holda asosiy vositalarni buxgalteriya hisobi obyekti sifatida tan olish, baholash hamda ularga eskirish (amortizatsiya) hisoblash tartibini "Hisob siyosati"da buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlariga muvofiq belgilab berish taklif etiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda asosiy vositalar hisobini to'g'ri tashkil etishi natijasida asosiy vositalarning holati va harakati bo'yicha buxgalteriya hisobi axborotlarining ishonchlilikini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) "Asosiy vositalar". O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 133-son [buyrug'iga](https://lex.uz/docs/7058293) 1-ILOVA. 4-modda. <https://lex.uz/docs/7058293>
2. Anthony, Robert Newton. Accounting principles /Robert N. Anthony, James S. Reece, D.B.A. – 7th edition, Irwin, 1995. 686 p.
3. Аюпова Л.А. Эволюция понятия основных средств в России. Л.А. Аюпова//В сборнике: Бухгалтерский учет, анализ и аудит в современных условиях: Материалы Всероссийской заочной научно-практической конференции. 2017. С.13-19
4. Кураков Л.П. Экономика и право: большой толковый словарь-справочник. М.: Вуз и шк., 2003 (Чебоксары.: РГУП ИПК Чувашия). 866 с.
5. Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dis. avtorefati. Toshkent: BMA 2009. 33 b.
6. Складенко В.К., Прудников В.М. Экономика предприятия, изд.2. Издательство: Инфра-М. 2019 г. 256 стр.
7. Пизенгольц М.З. Бухгалтерский учет в сельском хозяйстве. М.: Инфра-М, 2014. 520 с.



8. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik T. "Iqtisod-Moliya", 2019-y. -311b.
9. Финансово-кредитный словарь: [В 3 т.] / Гл. ред. В. Ф. Гарбузов 2-е изд. М.: Финансы и статистика, Том-1 Т.: Сост. В. К. Сенчагов и др. 2005 г. 900 с
10. Shakarov A.; Asosiy vositalar hisobi va nazoratini tashkil qilish (mulkchilikning turli xil shakllarida). Toshkent moliya in-ti. iqtisodiyot fanlari nomzodlik dissertatsiyasiga Avtoreferat: 08.00.00. 2000-yil
11. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>
12. <https://review.uz/oz/post/razvitie-ekonomiki-uzbekistana-v-2024-godu>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100